



AHAMONIYLAR DAVLATINING BOSHQARUV TIZIMI:

SATRAPLIK TIZIMI VA UNING AHAMIYATI

Amonova Sevinch Zamon qizi,

Egamberdiyeva Shirin Ğulom qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institutining

1-kurs 2-24-guruhi talabalari

Shirinegamberdiyeva26@gmail.com

asevinch219@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ahamoniylar davlati haqida yoritib berilgan va bu davlatda qanday hodisalar bulgani haqida bayon qilingan. Ahamoniylar davlatida ko'pgina urushlar bulib o'tgan va bu urushlardan keyin bo'li o'tgan voqealar haqida tahlil qilingan.

Kalit so'zi:Eron, Hindiston, Yunoniston, Midiya, Lidiya, Kichik Osiyo, Xorazm, Baqtirya, Misr, Finikiya.

Аннотация: В этой статье представлена информация о государстве Ахеменидов, а также описаны события, которые происходили в этом государстве. В империи Ахеменидов произошло множество войн, и в статье анализируются события, которые последовали после этих войн. Рассматривается влияние этих войн на политическую и социальную структуру империи, а также последствия для её будущего.



Ключевое слово: Иран, Индия, Греция, Мидия, Лидия, Малая Азия, Хорезм, Бактрия, Египет, Финикия.

Abstract: This article provides an overview of the Achaemenid Empire and describes the events that took place in this state. The Achaemenid Empire experienced numerous wars, and the article analyzes the events that followed these wars. The impact of these wars on the political and social structure of the empire, as well as the consequences for its future, is thoroughly examined.

Key word: Iran, India, Greece, Media, Lydia, Asia Minor, Khwarezm, Bactria, Egypt, Phoenicia.

Kirish. Ahamoniylar davlati, miloddan avvalgi VI-VI asrlarda Eronning eng kuchli va yirik imperiyalaridan biri bo'lib, o'z davrida katta siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta'sirga ega bo'ldi. Ushbu davlatning tashkil topishi miloddan avvalgi 550-yillarda Kambiz II tomonidan boshlandi va keyinchalik uning avlodlari tomonidan kengaytirildi. Ahamoniylar imperiyasi o'zining juda keng hududlari, kuchli armiyasi va markazlashgan boshqaruvi bilan ajralib turdi. Imperiya sharqda Hindiston, g'arbda esa Yunoniston chegaralarigacha yoyildi. Ahamoniylar davlati nafaqat harbiy yutuqlari bilan, balki o'zining siyosiy tizimi, inson huquqlariga doir yondashuvi va keng madaniy almashinuvi bilan ham tarixda o'z o'rnini egalladi. Dastlabki davrda Eronning yuqori tabaqalari va xalq o'rtasidagi ijtimoiy farqlarni kamaytirishga qaratilgan siyosatlar amalga oshirilgan bo'lib, bu davlatning davomiy muvaffaqiyatiga olib keldi. Ahamoniylar davlati davomida ko'plab urushlar bo'lib o'tdi, va bu urushlarning natijalari faqat imperiyaning o'zida emas, balki uning atrofidagi mintaqalarda ham katta ta'sir ko'rsatdi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Ushbu maqolada asosan ahamoniylar davlati tashkil topishi bu davrda bulgan voqealardan parcha berib o'tilgan bulib bunda parchalanishlar qo'zg'olonlar urushlar natijasi haqida berib o'tilgan. Birmuncha yil oldingi bulgan real voqealarva dalilarga tayanib manbalardan foydalanib yozildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ahamoniylar davlatiga qadimgi fors podshohlari xonadoni — ahamoniylar vakili Kir II asos solgan. Miloddan avvalgi 558-yil Kir II fors qabilalari ittifoqiga rahbar bo'lib, 553-yil midiyaliklar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Forslar 550-yil g'alaba qozonganlar va Midiyani egallab, keyingi uch yil mobaynida sobiq Midiya davlati tarkibiga kirgan mamlakatlarni bosib olganlar, 546-yil esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini zabt etganlar. Doro I davrida yagona tanga pul birligi — 8,4 g oltin og'irligidagi doriq joriy qilingan. Sikl (1/20 doriq) mayda kumush tanga vazifasini o'tagan. Ahamoniylar davlati etnik tarkibi va ijtimoiy uklad bo'yicha turli-tuman bo'lgan. Uning tarkibiga Kichik Osiyo, Bobil, Finikiya va Misr kirib, ularning qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Ushbu maqolada [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan. [1] Ular davlatni 20 ta harbiy-ma'muriy satrapiyalarga (okrug) bo'lib boshqarishgan. Ahamoniylar davlati yagona tanga pul birligi joriy qilgan va davlat 20 ta harbiy-ma'muriy satrapiyalarga bo'lingan. Zardushtiylik va Mitraizm kabi dinlar keng tarqalgan bo'lib, ularning madaniy va diniy tushunchalarini o'rganish mumkin. Ahamoniylar davlati qadimgi fors podshohlari xonadoni asosida shakllanib, ularning qo'shniligi bilan ko'plab voqealar sodir bo'lgan. [2] Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi 545-539 yillarda Kir II Sharqiy Eron viloyatlari va O'rta Osiyodagi Xorazm, Baqtriya va sak qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, Kir II O'rta Osiyoni qay tarzda bosib olganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Kir II ikkinchi yurishi mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchragan va ko'chmanchi massagetlar tomonidan tor mor etilgan. Massagetlarga To'maris boshchilik qilgan. Jangda Kir II halok



bo'lgan. Miloddan avvalgi 522 yil Doro I ahamoniylar taxtiga o'tirdi. U taxtga o'tirishi bilanoq bosib olingan ko'pgina viloyatlarda qo'zg'olonlar ko'tariladi. 522 yil oxirida Marg'iyonada ko'tarilgan Frada qo'zg'oloni Baqtriya satrapi Dodarmish tomonidan ayovsiz bostirildi. Miloddan avvalgi 519-518 yillar saklar Skunxa boshchi ligida qo'zg'olon ko'taradi. Lekin bu qo'zg'olon ham bostiriladi.[3] Ahamoniylar davlati davrida majburiy harbiy xizmat ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Elefantin orolidagi (Misrning janubiy chegaralari yaqinida) garnizon arxivlaridan ma'lumki, bu yerda miloddan avvalgi V asr oxirida xorazmlik jangchi Dargamon xizmat qilgan. Sak jangchilari haykallarining topilishi Misrda joylashgan yirik harbiy bazalardan biri bo'lgan forslarning Memfis garnizoni tarkibida sak otliq jangchilari ham bo'lganligini tasdiqlaydi. Yunonlarga qarshi chiqqan Kserks qo'shinlari tarkibini sanab o'tar ekan, Gerodot baqtriylar, sak-amorglar, parfonlar, xorazmiylar, so'g'diylar va saklarni ham tilga oladi.[4]

Ahamoniylar davlati o'zining qulashidan keyin ham o'zining merosini qoldirdi. Ularning huquqiy tizimi, ma'muriy tuzilmasi, me'morchilik va san'ati keyingi qadimgi davlatlarga katta ta'sir ko'rsatdi. Ahamoniylar Eron tarixining ajralmas qismi bo'lib qolgan va ular o'z davrining eng buyuk imperiyasiga aylandi. Shuningdek, Aleksandrning zulmi ostida ham, Ahamoniylar sulolasining ba'zi yodgorliklari va merosi saqlanib qoldi. Ahamoniylar davlati, o'z davrida Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Evropa o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi.[5]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ahamoniylar davlati nafaqat hududiy jihatdan, balki madaniyat, siyosat va iqtisodiyot sohalarida ham o'zining katta ta'sirini qoldirdi. Ular dinlararo bag'rikenglik, ma'muriy islohotlar va ilg'or infratuzilmani yaratish orqali, o'z davrining eng yirik va muvaffaqiyatli imperiyalaridan birini barpo etdilar. Ahamoniylar davlati o'zining markazlashgan boshqaruvi, islohotlari va diniy bag'rikengligi bilan ajralib turdi. Darius I davrida imperiya o'zining eng katta kengayishiga erishib, kuchli ma'muriy tizim va iqtisodiy



asosga ega bo'ldi. Bunda yo'llar, pochta tizimi, sug'orish tarmoqlari, yangi tanga tizimi kabi islohotlar muhim ahamiyat kasb etdi. Ahamoniylar davlati san'ati, me'morchiligi va yodgorliklari bilan katta meros qoldirdi. Persopol va boshqa yodgorliklar ushbu davrning rivojlangan madaniyatini aks ettiradi. Biroq, 330-yilda Aleksandr Makedonskiy tomonidan imperiya quladi, ammo Ahamoniylar merosi keyingi davrlar uchun hal qiluvchi bo'ldi. Ahamoniylar davlati miloddan avvalgi VI asrda Kyros II tomonidan asos solingan va qisqa vaqt ichida dunyoning eng yirik imperiyalaridan biriga aylandi. Ushbu davlat, Sharqda Persiya va uning atrofidagi hududlarni o'z ichiga olib, turli xalqlarni birlashtirib, keng madaniy va iqtisodiy aloqalar yaratdi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005)
2. Baxodir Eshov "Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi"
3. Doniyorov Alisher "Markaziy Osiyo xalqlari tushunchasi"
4. A.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi davlat va jamiyatchilik taraqqiyoti" U. Obidov "Tarixiy geografiya"
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.



7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAQ YO'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).



- 14.** Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
- 15.** Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
- 16.** Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.